



## ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> October 2022  
Accepted: 08<sup>th</sup> November 2022  
Online: 11<sup>th</sup> November 2022

## KEY WORDS

Subetnos, etnografik guruh, etnik guruh, etnos nazariyasi, subetnos asosi, assimilyasion jarayon, konsolidatsiya, etnik jamoa, etnogenez, o'zbek xalqi, urug', qabila, genealogiya, etnonim, etnik shakllanish

## FARG'ONA VODIYSI ETNOGRAFIK GURUHLARI

Vaxobov Botirali Mixailovich

Namangan davlat universiteti,

“Arxivshunoslik” kafedrası katta o'qituvchisi

mob. telefon:+998972168228,

E-mail: bmean@mail.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7312644>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada etnologiyaning ob'ektlaridan biri “subetnos” tushunchasiga oid nazariy qarashlar keltirilgan. Subetnos etnosning tarixiy shakllaridan biri hisoblanib, hozirgi kunda ularning o'ziga xosligini tadqiq qilish dolzarbdir. Etnos nazariyasi va subetnos (etnografik guruhga)ga oid ilmiy qarashlar adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Subetnoslarning o'ziga xos xususiyati, ularning paydo bo'lishi bilan bog'liq qarashlar bayon etilgan.*

*Farg'ona vodiysiga etnografik guruhlarining kirib kelish vaqti turli tadqiqodchilar asarlarida turlicha ko'rsatiladi. Etnografik guruhlarining Farg'ona vodiysi hududida joylashuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega.*

*Vodiydagi etnografik guruhlarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'rni o'rganilayotgan davrda sezilarli bo'lganini kuzatish mumkin. Etnografik guruhlarining urug'-qabilaviy bo'linishi alohida ahamiyatga ega.*

*Farg'ona vodiysidagi etnografik guruhlarini o'troq aholi bilan bo'lgan xo'jalik, savdo va madaniy aloqalarini tadqiq qilishda geografik jihatdan joylashuvi va uni o'ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Vodiydagi qipchoq, turk, yuz va qurama etnografik guruhlar o'zlarining xo'jalik yuritishlari bilan mahalliy aholidan ajralib turishgan.*

*Maqolada o'zbek xalqi tarkibida bo'lgan etnografik guruhlarini tarixiy-etnologik ma'lumotlar asosida yoritishga harakat qilingan. Etnik jamoalarning Farg'ona vodiysi hududiga kirib kelishi, shakllanishi, ko'chib o'tishi va tarqalishi yuzasidan tadqiqot olib borilgan.*

XX asr so'nggi choragidan boshlab etnologiya fanining tadqiqot ob'ekti va metodlarida ham ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yaqin davrgacha xalqlarning urf-odatlarini, marosimlari va xo'jaligi izchil

o'rganilgan bo'lsa, endilikda mavjud urf-odatlar, marosimlar va xo'jalik faoliyati xususiyatlarini keltirib chiqargan asosiy omillarni o'rganish zarurati tug'ildi.



XIX asr boshlariga qadar o'zbek xalqida konsolidatsiya jarayoni nihoyasiga yetmagan edi. Shu bois, uning tarkibiga birikayotgan bir qator etnografik guruhlar (subetnoslar) hali o'zlari uchun an'anaviy bo'lgan etnik jihatlarini (chunonchi, etnonimini, xo'jalik va madaniyatidagi o'ziga xoslikni) saqlab qolayotgan va ushbu xususiyatlari bilan yon-atrofdagi boshqa etnoslardan farqlanib turar edilar. Turk, qipchoq, qurama, yuz, ming kabi etnoslarni ushbu davrda Farg'ona vodiysi sharoitida etnik xususiyatlarini nisbatan yaxshi saqlab qolayotgan subetnoslar sifatida ko'rsatib o'tish mumkin[2, B.67].

Etnosning tarixiy shakllarini: urug', qabila, elat, xalq, millat, etnografik guruh, kam sonli millatlarni o'rganish etnologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Hozirda etnologiya fanida etnos, etnik birlik atamaları bilan birga "etnografik guruh" (inglizcha - *ethnographical group*; nemischa - *ethnographische Gruppe*; ruscha - *etnograficheskaya gruppa*) iboralari ham keng qo'llaniladi. Etnografik guruh — ma'lum bir etnosning (elatning yoki millatning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalardan biri) qismi bo'lib, o'zining ayrim xususiyatlari: til lahjasi, xo'jalik faoliyati va turmush tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qiladi. Etnografik guruh odatda bir qabila, elat yoki millat etnik hududining kengayishi, ya'ni bir guruhning ikkinchi bir etnos bilan aralashib, boshqa bir yerga borib, shu yerdagi xalq tarkibiga kirib, u bilan birga yashab qolishi natijasida vujudga keladi. Etnografik guruh ba'zan o'z elidan, xalqidan ajralib, boshqa bir etnik birlikka qo'shilishi natijasida ham vujudga kelgan. Bu xildagi etnoslarning katta qismi asrlar davomida o'z xususiyatini saqlab kelib, mahalliy xalq orasida yashab, ularning urf-

odatları va madaniyatini qabul qilib, asta-sekin unga aralashib borgan. Ammo ularning ma'lum qismi o'z tilini, o'zligini va moddiy madaniyatlaridagi bazi xususiyatlarni saqlab qolganlar[13, S.77-78]. Konsolidatsion va assimilyasion jarayonlar natijasida ko'plab xalqlar tarixiga subetnoslar yoki etnografik guruhlar kirgan.

XVI asr boshlarida ko'chmanchi o'zbek qabilalari Movarounnahrni bosib olganlaridan so'ng Farg'ona vodiysi bir necha o'zbek qabilalari uchun ko'chib yurish uchun joy sifatida belgilandi. Qo'qon chegaralarida, Ashpar atroflarida – minglar, Xo'jand atroflarida – yuzlar, Andijon atroflarida – turk va qipchoqlar, Marg'ilon va Namangan oraliqida qipchoqlar ko'chmanchilikda hayot kechirganlar[4, S.315-321].

Farg'ona vodiysiga ko'plab Shayboniy qo'shini bilan o'zbek qabilalari kirib kelib, shu yerdagi turkiy urug'lar bilan aralashib hududdagi o'zbek elementini oshib borishiga va ming, qipchoq, qoraqalpoq, turk, qirq, yuz, nayman, saroy qabilarini siyosiy jihatdan yetakchi bo'lishiga olib keladi[3, S.426].

Muhammad Hakimxonning "Muntaxab at-tavorix" va Mirzo Olim Mushrifning "Ansob as-salotin..." asarlarida Qo'qon xonligi siyosiy hayotida faol ishtirok etganligi bois turli etnografik guruhlarining xonlik hududida joylashgani va ularning xonlikdagi mavqeyi haqida alohida tilga olinib, ma'lumotlar beriladi.

Etnografik guruh sifatida ko'rilayotgan qipchoqlarning Farg'ona vodiysi hududiga kelib joylashuvi jarayoni bir necha asrni o'z ichiga oladi[6, S.45-72; 12, S.17]. Ehtimol, ularning ba'zi bir guruhlarini Shayboniyxon qo'shinlari bu yerga kirib kelgunga qadar ham Farg'ona vodiysida paydo



bo'lgandirlar[1, B.16]. Ushbu masala bilan maxsus shug'ullangan K. Shoniyozov bu jarayonni yanada aniqroq sana - XVIII asrning 20-30- yillari bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, qalmiqlar ta'qibidan qochgan qipchoqlarning katta guruhi ayni shu davrda Shimoliy Farg'onaning tog'li va tog'oldi hududlariga kelib joylashgan.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Qo'qon xonligida qipchoqlar faqatgina Andijon viloyatida joylashibgina qolmasdan, xonlikning Namangan va Marg'ilon viloyatlari hamda Qo'qon atrofida ham yashaganlar.

XIX asrda qipchoqlar Qo'qon xonligida o'z nufuziga ko'ra, kuchli qabila va guruhga aylanib, xonlikning siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshlaganlar.

Farg'ona qipchoqlarining aksariyati Andijon uezdida - Andijonsoy, Norin daryosining quyi qismi, Moylisuv va Qoradaryo atrofidagi qishloqlarda yashagan. Ayrimlari Namangan uzdi hududida - Kosonsoy, Sumsar, Chodak, Podsho Ota, Norin, G'ova kabi daryo va soy havzalarida hamda Yangiariq kanali atrofida istiqomat qilgan[13, S.139-140].

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida vodiy hududida yashagan qipchoqlar to'rt katta guruhga bo'lingan. Bular - qipchoqlar, qirg'iz-qipchoqlar, xitoy-qipchoqlar va sart-qipchoqlar.

Ushbu qipchoq guruhlari o'z o'rnida bir qancha urug'larga bo'linganlar. Jumladan qo'g'ay, bug'och, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydoq, puchug'oy, elatan, bo'g'oz, og'im, toz, sirmoq, yetti qashqa, qutluqsaid, cherek, ko'kmo'yin, to'rtayg'ir, to'rttoy, tovuldi, changroqchi, chiyal, qulon, oqbo'yra, qorabovur, boshqirt, tikan, qoratikan, sari-qipchoq, qoramoyun, katta-o'lmas, elatan, yaydoq, qo'yquloq, og'in, jikan, to'rtoylik, tuyachi, saroy, yorboshi,

qozi kabi urug'lari Farg'ona vodiysida qayd etilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan Farg'ona vodiysi qipchoqlarining urug'lari ichida eng yiriklari bu yettiqashqa, o'lmas, qulon, elatan va yashiq etnonimlari bilan ataluvchi urug'lar hisoblangan[5, S.402]. Farg'ona vodiysida qipchoq urug'lariga nomlari bilan ko'plab etnonimlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati joy nomlarida aks etgan[6, S.44].

Vodiy etnografik guruhlardan yana biri turklar bo'lib, ular o'zbek xalqining asosiy qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Turklarning ko'chib kelib joylashuvi davri haqida xar xil qarashlar mavjud[6, S.68]. Adabiyotlarda turklarni asosan vodiyning janubiy sharqiy qismida joylashgan, Farg'ona vodiysi chegaralarida turklar Shayboniyxon o'zbeklari tomonidan tekisliklar tomonidan tog'oldi va yuqori tog' tomonlarga siqib qo'yilgan edi[9, S.59]. Turklar o'z qo'ylarini boqish uchun vodiyning o'rta qismida ekinlardan xoli keng tekisliklar va o'simliklar bilan qoplangan adirlar joylashganliklari ularning bu hududda yaqinda vaqt davomida paydo bo'lganliklaridan dalolat beradi[11, S.17]. O'troqlashayotgan turklar tabiiyki o'zlarining ko'chmanchilik hududlarida joylashganlar. Shuning uchun turklarning manzigohlari Farg'ona vodiysining janub tomonida g'arbdan sharqqa qadar davom etgan adiroldi yaqinlarida joylashgan[12, S.6, 99].

Turk etnografik guruhidan barloslar, kaltatoylar va turklar kabi yirik qabilalar Farg'ona vodiysida istiqomat qilishgan. Turklarning yirik guruhlardan tashqari vodiya urug' qabila nomlari boshqa yerda uchramaydigan mayda bo'linmalari ham mavjud bo'lgan[6, S.69-70]. O'sh viloyatining Aravon tumanida turklarning: karrak, beshkaram, ko'kylabosh,



yomonturk, go'jlar, tangriq, kechatogor, kalpato'pi, supalik, qing'irlar, sutxor, kaltatoy kabi qismlari yashaganlar. Andijon viloyatida: Turklar kompakt tarzda Marhamat tumanining Qorabag'ish, Qoraqo'rg'on, Ko'tarma, Shukurmergan va Qo'shchi; Asaka tumanining "Yangiobod" jamoa xo'jaligida, Xo'jaobod tumanning Shirmonbuloq va Nayman qishloqlari hududlarida istiqomat qilganlar. Quva tumanining Namuna, Bo'z tumanining Oxunboboev jamoa xo'jaligi. O'sh viloyati: O'zgan tumani, Aravon tumanlarida yashaganlar[5, S.389].

Farg'ona vodiysi ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy rol o'ynagan etnografik guruhlardan yana biri yuzlar bo'lgan[8, S.54]. Farg'ona vodiysi hududida yuzlar bir necha qismga ajralgan bo'lib, ularning marka, qarapchi, va qirq, deb nomlanuvchi bo'linmalari mavjud edi. Odatda ular markayuz, qarapchiyuz va qirqyuz etnonimlari bilan atalgan[1, B.15]. Ushbu etnik bo'linmalar o'z navbatida qator mayda urug'lar - marka, uya -solin va xitoyizi (xitoy yuz)ga bo'linganlar.

Farg'ona vodiysida yuzlarning boloiiazim, barchavekyuz, changyuz, devonbegi, kallar, qipchoq, nayman, mullato'pi, napkarachyuz, sirg'ali, xashtak, chauken, erganakliyuz va chorkesar kabi mayda urug'lari qayd etilgan.

XIX- XX asrlarda yuzlarning asosiy qismi vodiy hududiga tutash bo'lgan Zomin va O'ratepada yashaganlar[10, S.222]. Bundan tashqari, Andijon viloyatining Baliqchi, Asaka, Shahrixon, Farg'ona viloyatining Buvayda tumanlarida joylashgan bir qancha qishloqlarida ham yashagan.

Yuzlar asosan, Farg'onaning pastekisligi bo'ylab tarqalib, xatto Qurama tizmasi tog'oldi hududlargacha borib yetib, vodiyning janubiy g'arbiy burchagida

istiqomat qilishgan[8, S.56]. Yuzlar Farg'ona vodiysining boshqa hududlari Baliqchi, Shahrixon, Asaka, Quva tumanlarida ham istiqomat qilganlar.

Farg'ona vodiysiga qurama etnografik guruhlarining ko'chib o'tishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ayrim axborotchilar XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlari deb belgilasalar, boshqalar o'z ajdodlarini XVII asrda Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tganlar deb belgilaydilar. Quramalarning vodiya ko'chib o'tish sabablari qolgan yarim ko'chmanchilarniki singari o'z chorvalari uchun yaylov topish edi. Quramalar Farg'ona vodiysiga Angrenning Telyau, Xonobod, Jaloir, Abjaz, Karaktay va boshqa qishloqlardan va Qurama tog' tizmalaridagi dovonlar Sarimsoqlik, Qoraqiya, Kendirdovan va boshqalar orqali kelgan. Quramalarning ayrim qismlari Qurama tog' tizmalari etaklarida joylashgan bo'lsa, qolgan qismlari Farg'ona vodiysining ichkarisiga o'zlarining chorvalari uchun bir muncha qulay yaylovlar kirib borganlar. Vodiydagi aholini zichligi va yaylov o'tloqlarni yetishmasligi tufayli Qurama tog' tizmalari etaklarida qolgan quramalarga nisbatan tezda o'troqlashuvga va o'troq aholi bilan aralashib ketishiga olib keldi.

Farg'ona vodiysiga quramalarning quyidagi guruhlari o'z qismlari bilan birga ko'chib o'tganlar: jaloirlar: kereit, japalak, turayg'ir, tupar, qarochoyon, chuvaldak, jastaban; tamalar: chubalanchi, olchin; uyshun: chuvildaq, abiz, beshkal, ko'rpa; telyau: qorago'yli, qorasiyrak; ungut; abdjaz; o'roqli; bolg'ali; g'ishlik va boshqalar. Quramalar Namangan viloyatida To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida; Farg'ona viloyatida Beshariq, Qo'qon



atroflarida, Quva va Rishton tumanlarida; Andijon viloyatida Izboskan, Asaka, Shaxrixon, Oltinko'l, Paxtaobod tumanlarida ro'yxatga olingan[7, S.40]. Ko'chmanchilikdan va yarim ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgan quramalar Farg'ona vodiysida alohida tarzda joylashgan. Quramalar Farg'ona vodiysida joylashgan etnografik guruhlariga nisbatan son jihatdan ozchilikni tashkil qilgan[9, S.65].

O'rganilayotgan davrga kelib etnografik guruhlarining asosiy qismi o'troq turmush tarziga hamda dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tib bo'lgan edi. Biroq, ularning katta bir qismi to XX asr boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, o'zlari uchun an'anaviy bo'lgan chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borganlar. Ayni vaqtda ushbu yarim

o'troq aholi o'zlarining tuzilishlarida urug' va qabilalarga bo'linish prinsiplarini saqlab qolganlar.

XIX–XX asrlar chegarasi Farg'ona vodiysida istiqomat qilayotganlar o'zligini anglash sohasida transformatsiya yuz berayotgan bir davr bo'lib, statistik ma'lumotlar buni tasdiqlaydi. Ba'zi bir etnik jamoalar ro'yxatlarda yo'qolib bora boshlaydi.

Hozirga qadar Farg'ona vodiysining o'zbek aholisi orasidagi etnografik guruhlardan jiddiy tarzda faqatgina qipchoqlar o'rganilgan xolos[15;13]. Vodiydagi o'zbeklarning etnografik guruhlariga haqidagi ma'lumotlar turli tadqiqotchilar tomonidan yozilgan monografiya va maqolalarda qisman yoritilgan. Farg'ona etnik tarixi muammolaridan biri bu hududda o'tmishda yashagan etnografik guruhlarini alohida tadqiqot sifatida o'rganishdir.

## References:

1. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т. 2005. (Abdullaev U. P. Interethnic Processes in the Ferghana Valley. - Tashkent, 2005.)
2. Абдуллаев У. Фарғона водийсидаги этнослараро муносабатлар тарихидан // Ўзбекистон тарихи. – Т., 2005. (Abdullaev U. From the history of interethnic relations in the Ferghana Valley // History of Uzbekistan. Tashkent, 2005. - No. 4.)
3. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племенъ и народностей и сведения об их численности // Живая старина. – СПб., 1896 (Aristov N. A. Notes on the ethnic composition of Turkic tribes and nationalities, information on their numbers // Zhivaya Antina. - St. Petersburg, 1896)
4. Валиханов Ч.Ч. Записки о Коканском ханстве // Соч.: В 5 т., Т. III. – Алма-Ата, 1985. (Valikhanov Ch. Ch. Notes on the Kokand Khanate // Op. : 5 vol., Vol. III. - Alma-Ata, 1985)
5. Винников Я.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине // СЭС.– М., 1959. (Vinnikov Ya. R. Modern resettlement of peoples and ethnographic groups in the Ferghana Valley // SEP.– Moscow., 1959.)
6. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX-начале XIX (по данным топонимии). –Т.,1983. (Gubaeva P. P. The ethnic composition of the population of Ferghana in the late XIX - early XIX (according to toponymy). - Tashkent, 1983.)



7. Губаева С.С. Населения Ферганской долины в конце XIX - начале XX в.(этнокультурные процессы). – Т. 1991. (Gubaeva P. P. Population of the Ferghana Valley at the end of the nineteenth - beginning of the twentieth century. - Tashkent, 1991.)
8. Губаева С.С. Расселение племени юз в Ферганской долине на рубеже XIX – XX. Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. (Gubaeva S. S. The resettlement of the Yuze tribe in the Ferghana Valley at the turn of the 19th – 20th / Onomastics of Central Asia. - Frunze, 1980.)
9. Иногомов Ш. И. Этнический состав населения и этнографическая карта Ферганской долины в границах УзССР. Дисс. ... канд.ист.наук. – Т., 1959. (Inogomov Sh. I. The ethnic composition of the population and ethnographic map of the Ferghana Valley within the borders of the Uzbek SSR. Dis .... Candidate. - Tashkent, 1959.)
10. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Узбекистана и Таджикистана. – М., 1976. (Karmysheva B.Kh. Essays on the ethnic history of the southern regions of Uzbekistan and Tajikistan. - Moscow, 1976.)
11. Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков. // СЭ. № 1 – М., 1960. (Karmysheva B.Kh. ethnographic group "Turk" composed of Uzbeks. Soviet ethnography, No. 1.- Moscow, 1960.)
12. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань. 1886. (Nalivkin V.P. A brief history of the Kokand Khanate. - Kazan, 1886.)
13. Шаниязов К.Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период (Процессы интеграции) // этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М., 1980. (Shaniyazov K. Sh. Kipchaki in the Uzbek ethnic environment in the pre-October period (Integration processes) / Ethnic processes in national groups of Central Asia and Kazakhstan. - Moscow, 1980.)
14. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жарёни. – Т., 2001. (Shoniyozev K. The process of formation of the Uzbek people. - Tashkent, 2001.)
15. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. (Shaniyozev K. Sh. On the ethnic history of the Uzbek people. - Tashkent. 1974)